DOI

Sunnatullayeva M.M.
BuxDPI, Tillar fakulteti talabasi
Hamidova Z.I.
BuxDPI, Tillar fakulteti talabasi

UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARGA XORIJIY TILLARNI O'QITISHNING MAQSAD VA VAZIFALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarga chet tilini o'rgatish asoslari haqida fikr yuritiladi.
Kalit so'zlar: milliy tarix, tadqiqot, badiiy asar, an'ana, xorijiy til, metod.

Sunnatullaeva M.M.
BuxDPI, Student Of The Faculty of languages
Hamidova Z.I.
BuxDPI, Student Of The Faculty of languages

TO STUDENTS IN SECONDARY SCHOOLS GOALS AND OBJECTIVES OF TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Annotatsiya: This article discusses the basics of teaching a foreign language to scools.
Keywords: National history, research, artistikwork, tradition, foreign language, method.

Bugungi kunda mamlakatimizda xalq ta'limi tizimida xorijiy tillarni o'rgatish juda dolzarb masalalardan biridir.Til o'rgatishda asosan yangi zamonaviy texnologiyalardan , akt vositalaridan unumli foydalanish,interfaol metodlar va didaktik o'yinlar vositasida hamda ogzaki nutq darslari shaklida tashkil qilinadi.Xorijiy tillar o'zining maqsadi, vazifalari, mazmuni, metodlari, prinsiplari, vositalari,sharoiti va talablari bilan boshqa fanlardan farq qiladi.Mazkur o'quv predmeti o'quvchilarga alohida kommunikativ bilim,ko'nikma va malakalarning shkllanishini talab qiladi.Yangi pedagogik texnologiyani joriy qilish har bir pedagog o'qituvchining oldidagi asosiy burchi ekan,mashgulotlarni samarali va natijasi yaxshi chiqishi uchun didaktik o'yinlarning har xil usullaridan noan'anaviy usullardan foydalangan holda darslar o'tilsa ,uning natijasi, albatta, yaxshi ko'rsatkichlarga olib keladi.Boshlangich sinflarda chet tili darslarini tashkil etish kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda nutq boyligini o'stirish ,mustaqil fikrlashga o'rgatish adabiy-estetik tafakkurni kamol toptirish hamda shu yoshdagi bolalarni har tomonlama etuk qilib tarbiyalashdan iborat.

https://wordlyknowledge.uz

Boshlangich sinf o‘quvchilari so‘z boyligini oshirish,nutqini o‘stirish,fikrlash qobiliyatini shakllantirish va o‘zlari mustaqil gapirishlari, matn yaratishlari lozim.Bola o‘zini va o‘galarni, narsa va hodisalarni til vositasida taniydi,bilib oladi.Ular to‘grisidagi o‘z hissiyot,kechinmalari fikrini nutq vositasida yuzaga chiqaradi.Til va nutqning o‘zaro munosobati bolalar uchun ham,kattalar uchun ham umumiylik va xususiylik,imkoniyat va reallik o‘rtasidagi munosobatlar-boglanishlar shaklida amal qiladi.Zamonaviy darsni information texnologiyalar va yangi pedagogik uslublarsiz tasavvur qilish juda ham mushkul. Ta’lim jarayonining sifatini oshirishga kuchli ta’sir qila oladigan didaktik vositalar, multimedialar,electron adabiyotlar, masofadan o‘qitish dasturlari,animatsion,yangi tasvir va tovushni o‘zida mujassamlashtirgan ko’rgazmali qurollarning barchasi zarurdir. Ayniqsa, boshlangich sinf o‘quvchilari uchun bu ayni muddao.Chunki maktab ostonasiga endigina kirib kelgan murg’ak qalb egalarini bu hayotga moslashishlari biroz vaqt talab etsa,o‘yin faoliyati ularda ko‘nikma hosil qiladi.Interaktiv usullarni tanlashda o‘quvchilarning yoshini ,psixologiyasini,og’zaki va yozma nutqlari hisobga olingan. Boshlangich sinf o‘quvchilarini fikrlash doirasini kengaytirishning eng maqbul echimi ham interaktiv usullarni dars jarayonida tatbiq qilishdir.

Darslarda interaktiv usullar qo‘llashni shunday tashkil etish kerakki, bunda sinfdagi barcha o’quvchilar faollashishi zarur,ya’ni dars o’tish jarayonida o‘quv materiallarining ma’lum bir qismi o‘quvchilar tomonidan mustaqil o’rganiladi.O‘qituvchi o‘quv jarayoni tashkilotchisi, rahbari,nazoratchisi hamdir.O‘quvchilarning sinfda o‘zini erkin his qilishi va o‘quv faoliyati uni emotsional jihatdan qoniqtirishi lozim, ana shundagina u o‘zining fikrlarini erkin bayon qila oladi.

Ogzaki nutqni o‘stiruvchi kalitli so‘zlardan foydalanib dialog tuzish,rasmga,matnga tayanib savollar berish, kommunikativ vazifaga ega replikani takrorlash muhim ahamiyatga egadir.Masalan, ingliz tilida quyidagi misollarni keltirish mumkin:Have you a brother? Sizning akangiz bormi? When do you have breakfast? Siz qachon nonushta qilasiz? I have no book.Mening kitobim yo‘q.Have you got children? Sizning bolalaringiz bormi?

Matnlar og’zaki nutq ko’nikmalarini o‘stirish uchun tayanch Bo‘ladi.Matn o‘qilib Bo‘lingach quyidagi mashqlar beriladi.

a)savollarga javob berish;

- Qui est Zokir Safarov?
-Où habite-t-il ?
-Où fait-ils ses études?
-A quelle faculté fait-il ses études?
-Sa famille est-elles nombreuse?
-Où travaillent ses parents?
-Ses grands parents travaillent-ils?
-Sa soeur aînée où fait-elle ses études?
-Où habitent ses oncles et ses tantes?

https://wordlyknowledge.uz

-Où travaille sa soeur aînée?
-Le mari de sa soeur où travaille-t-il?
Aimez-vous votre famille?

b)o‘zi haqida,do‘sti haqida matndan foydalanib so‘zlab berish;

Hier Jsobelle m'a proposé …

Jsobelle me propose d'aller au restaurant. Elle me demande si j'aime les restaurants chinois parce qu'elle en connaît un tout près de la gare. J'accepte car elle me dit que nous y serons tranquilles et que nous mangerons bien. Je lui demande si on mangera avec baguettes, car je ne sais pas m'en servir! Elle me répond que ce n'est pas très difficile, qu'elle me montrera comment faire et qu'elle est sûre que je me débrouillera très bien.

Hozirgi globallashuv jarayonida xorijiy tilllarni o‘rgatishning mazmuni o‘qitish maqsadlariga bogl’iq bo‘lib,uning maqsadi yuksak ma’naviyatli shaxsni tarbiyalash, rivojlantirish va chet tilini o‘rgatishda oid jamiyat va davlatning taraqqiyotiga hissa qo’shishdan iborat.Til ta’limining samarali jarayoni amaliy,umumta’limiy, rivojlantiruvchi va tarbiyaviy maqsadlar uzviyligini ta’minlagan holda Davlat ta’lim standartlari talablari asosida uygunlashadi. Xulosa qilib aytganda, umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilariga xorijiy tilni o‘qitish mazmuni va maqsadlari tarkibi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lib,bu jarayonni samarali tashkil etish uchun o‘qituvchidan bir nechta o‘qitish texnologiyalarini qo‘llashni taqozo etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.”Xalq ta’limi” ilmiy-metodik jurnali,1-son 2015
1.Filologiya va usuliyot masalalari(2-kitob).”Buxoro “ nashriyoti,2010 yil
2.Ingliz tili darsligi ,E.A.Abdalina,R.J.Hoshimova.Toshkent”Universitet”2011
3.Common Europeen Framework of reference:learning,teachning, assessment.Language Policy Unit Strasbourg/ www.coe. Int/lang-CEFR.

https://wordlyknowledge.uz